

Andijon viloyat statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar oyida Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2745,4 mlrd.so'mni**, o'sish **35,3 %**ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **-138,0 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **72,0 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **20,5 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'iyicha 2018 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizda korxonalar tomonidan 2745,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 135,3 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 96,6 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalar ham hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2,7 foiz, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,5 foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da





Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2650,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,6 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 72,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,7 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1977,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 138,0 %, jami sanoatdagi ulushi esa 72,0 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




***Yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,
% da***



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Asaka tumani (2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 152,1 % ga), Honobod (151,9 %) Andijon (126,5 % ga) shaharlarida, Jalaquduq (113,1 % ga), Andijon (111,9 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi va o`shish sur`ati



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 58,3 % ulushini), Andijon (18,4 %), Honobod shaharlari (4,5 %), Andijon (2,6 %), Baliqchi (2,2 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Marhamat (1,0 %), Bo`z (0,8 %), Buloqboshi (0,6 %), Ulug`nor (0,6 %) va Paxtaobod (0,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.